



MUSIQIY RISOLALAR – NOMODDIY MADANIY MEROSNING YOZMA MANBASI VA TASHUVCHISI

Xaydarov Xumoyun Samijonovich

San'atshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22138348>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 26-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 28-avgust 2026 yil

KEY WORDS

musiqiy risolalar, nomoddiy madaniy meros, yozma manbalar, Sharq musiqa nazariyasi, Abdulqodir Marog'iy, maqom, musiqa ilmi, musiqiy meros, raqamlashtirish..

ABSTRACT

Mazkur maqolada musiqiy risolalarning nomoddiy madaniy merosni saqlash va avlodlarga yetkazishdagi o'rni yoritiladi. Ularda mujassam musiqiy-nazariy bilimlar, ijrochilik an'analari va estetik qarashlarning ilmiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada Sharq musiqa nazariyasining yozma manbalari, xususan, Abdulqodir Marog'iy merosi misolida musiqiy risolalarning tarixiy va nazariy qiymati ochib beriladi. Shuningdek, ularni zamonaviy ilmiy tadqiqot va raqamli muhitga jalb etish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Tarixiy-madaniy merosning muhim qatlamlaridan biri bo'lgan musiqiy merosni o'rganish, asrash va kelajak avlodlarga yetkazish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Ayniqsa, qadimiy musiqiy bilim va qarashlarni aks ettiruvchi yozma manbalarni tizimli ravishda o'rganish ularning mazmunini qayta ilmiy muomalaga kiritish, mavjud ilmiy qarashlarni boyitish hamda ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq musiqa tafakkurining shakllanishi va taraqqiyotini yorituvchi musiqiy risolalar alohida ilmiy va madaniy qiymatga ega manbalar sifatida namoyon bo'ladi.

XIV-XV asrlar O'rta Osiyoning musiqiy-madaniy taraqqiyotida muhim tarixiy davrlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur davrda shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar va yaratilgan musiqiy risolalar Sharq musiqa tafakkurining keyingi rivojiga, shuningdek, musiqiy bilimlarni tizimlashtirish va o'qitish an'alarining takomillashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot va san'atning rivojlanishi uchun yaratilgan muhit musiqa ilmining ham yuksalishiga zamin yaratgan. Ana shu ilmiy-madaniy muhitda faoliyat yuritgan Xo'ja Abdulqodir Marog'iy Sharq musiqashunosligi tarixida muhim o'rin egallab, musiqa nazariyasi, maqom va ijrochilikka oid qarashlarning rivojiga salmoqli ilmiy meros qoldirgan.

Uning "Musiqa maqsadlari", "Musiqa xazinalari", "Jami'ul-alhon" kabi risolalari nafaqat o'z davrining ilmiy yutuqlarini aks ettiradi, balki bugungi kunda raqamlashtirilayotgan madaniy meros uchun ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlar musiqaning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli tarzda yoritgani bilan ajralib turadi. Shu bois, musiqiy risolalarni raqamli shaklga o'tkazish nomoddiy madaniy merosni saqlash va uni global ilmiy maydonga olib chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Amir Temur hukmronligi davrida musiqa madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan Sharqning yetuk allomalarida biri Xo'ja (ayrim manbalarda Xoja) Abdulqodir Marog'iydir (1353-1435)¹. XIV-XV asrlar O'rta Osiyo musiqa madaniyati tarixida salmoqli davrlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yozilgan ko'plab manbalar musiqa madaniyatining o'z davri va keyingi taraqqiyot bosqillarini belgilab berdi. Bu keng ko'lamli ishlarda Marog'iyning ham hissasi kattadir.

Abdulqodir Marog'iy dastlabki musiqiy bilimlarini otasidan olgan. Keyinchalik musiqiy bilimlarini mustahkamlash maqsadida Forobiy, ibn Sino, al-Xorazmiy, Urmaviy, ash-Sheroziy kabi Sharqning yetuk allomalari asarlarini o'rganadi. Ularning musiqaga oid nazariy fikrlarini rivojlantiradi. Bu asosida esa o'zi mustaqil ravishda risola va asarlar yozadi. "Abdulqodir Marog'iyning musiqashunoslikka oid quyidagi asarlari ma'lum:

1. "Musiqa maqsadlari"
2. "Musiqa xazinalari"
3. "Musiqa to'plami"
4. "Musiqa kitobi"
5. "O'nta foyda"
6. "Davrlar sharhi kitobi"
7. Ruhparvar "davrlar kitobi" asarining turkiy tarjimai².

Allomaning Temuriylar saroyiga kelishi borasida turli fikrlar keltirilgan. Ayrim manbalarda u Amir Temur saroyiga Bag'dod hukmdori tomonidan tortiq qilingan degan fikr yuritilsa, boshqa manbalarda Amir Temur yurishlari davomida Bag'dodni bosib olib ko'plab ijodkor va olimlar kabi Marog'iy ham o'z saroyiga olib ketgan deya mulohaza qilinadi³.

Shundan so'ng Marog'iy madaniyat va san'atning homiysi sanalgan Amir Temur saroyida yashab, o'z ijodiy va tadqiqot ishlarini olib boradi. Bu davrda musiqa madaniyatiga oid ko'plab asarlar yuzaga yaratadi. Uning musiqa madaniyati yo'lida xizmat qiladigan "Maqasidul alhon" ("Kuylarning o'rni"), "Jami'ul - alhon" ("Kuylar to'plami") ikki risolasining yaratilishi mana shu davrga to'g'ri keladi.

Marog'iyning ushbu asarlari orasida eng keng tarqalgani "Musiqa maqsadlari" asaridir. Bu asarni yozishda Marog'iy ibn Sinoning "Shifo" asari tarkibiga kirgan "Musiqa ilmi to'plami" kabi nazariyotdan toki amaliyotgacha bo'lgan bosqichlarni alohida boblar ko'rinishida keltirib o'tadi. Ibn Sino "Shifo" asari tarkibiga kirgan "Musiqa ilmi to'plami" asarida ovoz, musiqiy tovushning yuzaga kelishidan boshlab bastakorlikka qadar, cholg'ularning turlaridan tortib ularning kishi ruhiyatiga ta'siri xususida so'z yuritadi. Marog'iyning "Musiqa maqsadlari" asari ham tuzilishi va tarkibi jihatidan ushbu asarga o'xshash tarzda yozilgan. Ibn Sino "Shifo" asari tarkibiga kirgan "Musiqa ilmi to'plami"da ko'proq musiqaning ruhiyatga ta'siri yuzasidan tadqiqotlar olib borgan va shu izlanishlarini ta'lim oluvchilarga o'rgatgan. Bundan tashqari bu asarda ruhiyatni davolashda musiqaning o'rni va uning davo uchun qanday qo'llanilishi haqidagi ta'limoti ham ilgari suriladi. Marog'iyning asari esa musiqashunoslikka oid bo'lib unda aynan musiqaning nazariy jihatlarini xususida so'z boradi.

¹ Qarang: https://uz.wikipedia.org/wiki/Xoja_Abdulqodir_Marog%CA%BBiy

² Oripov Z. X-XV asrlar O'rta Osiyo musiqa manbashunosligi. – Toshkent: 2017. 94 – 95-betlar.

³ Qarang: Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: 2006. 18-bet.

Ibn Sinoning asaridagi ma'lumotlar avval boblarga keyin yanada kichikroq bo'lgan maqolalarga va undan so'ng fasllar ko'rinishida keladi⁴. Marog'iyning asarida esa alohida 12 ta boblar orqali fikrlar bayon etiladi. Ushbu asarni ham musiqa ta'limi jarayonlarida darslik, o'quv qo'llanma sifatida qabul qilish mumkin. Chunki, asardagi ma'lumotlarning aynan o'rganuvchilar uchun tushunarli tarzda keltirilishi, mavzular ketma – ketligi ta'lim jarayonlarida qo'llash uchun qulay tarzda kiritilganligini kuzatish mumkin.

Asarning 1-bobida musiqa nazariyasiga oid bo'lgan dastlabki mavzular qamrab olingan. Unda tovush, ovozi, ton va ton, interval (bo'd), jam (gamma) xususiyatlari, bu san'at asoslari, nag'ma (ton) balandligi va pastligi sabablari xaqida so'z boradi.

2-bobda pardalarni taqsimlash va intervallar xususida fikr yuritilgan. Ularning nisbatlari, soni, yoqimsizlik-ohangsizlik (dissonans) sabablari, intervallarni birini biriga qo'shish, birini biridan ayirish, intervallarni ikkiga bo'lish qoidasi, torli sozlarda jo'r bo'lish yo'li kabi haqida fikrlar bayon etiladi.

3-bob: Kvarta va kvinta qismlari bayoni, bu qismlarni bir-biriga qo'shishdagi doiralar tartibi, o'lchamlar, turlar bayon etiladi.

4-bob: Mashhur davrlar ya'ni o'n ikki maqom zikri ularga ko'rsatgichlar, doiralar nag'malarining (tonlarining) soni torni taqsimlashdan davrlarni chiqarish yo'li va jo'rnavozlik yo'li xususida fikrlar keltiriladi.

5-bob: Olti ovoza va ularni tordan chiqarish, allomalar Kutbiddin Sheroziy, Safiuddin Urmaviy va faqirning ularga javobi xaqida so'z yuritiladi.

6-bob: Yigirma to'rt sho'ba bayoni va ularni tor pardalaridan chiqarish bayoni haqida.

7-bob: Intervallarning birini biriga ayriboshlash, advor nag'am(tonlar)ining ishtiroki, maqom, ovoza, sho'balar munosabati bayoni haqida.

8-bob: Yuqori oktava (Zi-l-kul ahad) asoslarida juziy ko'chish turlari bayoni haqida.

9-bob: Usul davrlari (dvor iykiy) bayoni, olti barmoq zikri, qadimiy yo'l, tasniflarga kirish bayoni haqida.

10-bob: Davrlar nag'malari (tonlari) ning ta'siri, usul bevosita amalda, tasniflar yaratish.

11-bob: Torlarda qaytarma usulni paydo bo'lishi haqida va jo'rnavozlik zikri.

12-bob: Xonandalarning ta'limi haqida bo'lib, unda xonandalarning ijro uslublari, o'rganishda ahamiyat berilishi muhim jihatlari xususida so'z boradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy risolalar Sharq musiqa tafakkurining tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi yozma manba bo'lish bilan birga, ularda mujassam musiqiy bilim, nazariy qarash va ijrochilik an'analarni saqlovchi nomoddiy madaniy meros tashuvchisi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Abdulqodir Marog'iy merosi misolida musiqiy risolalarda aks etgan Sharq musiqa nazariyasiga oid qarashlar mazkur manbalarning ilmiy va madaniy qiymatini yaqqol namoyon etadi.

Shu nuqtayi nazardan, musiqiy risolalarni o'rganish va ularning mazmunini ilmiy muomalaga kiritish tarixiy musiqiy bilim va an'analarni chuqur anglash imkonini beradi. Ularni raqamlashtirish esa ushbu merosni zamonaviy axborot muhitida saqlash, tizimlashtirish va tadqiqotchilar uchun ochiq ilmiy resurs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, musiqiy risolalarning qiymati faqat ularning qadimiy yozma manba ekanligida emas, balki ularda

⁴ Qarang: Ibn Sino. "Qonuni fi-t-tib" 1-jild. – Toshkent: 1956.

avlodlardan avlodlarga yetib kelgan nomoddiy musiqiy bilim va an'analarning mujassamligida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayxodjayeveva Sh. O'zbek musiqasi tarixi. – Toshkent.: 2021.
2. Ibn Sino. "Qonuni fi-t-tib" 1-jild. – Toshkent.: 1956.
3. Ibrohimov O. Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati. – Toshkent.: 2003.
4. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – Toshkent: 1995.
5. Oripov Z. X – XVI asrlar O'rta Osiyo musiqa manbashunosligi. – Toshkent.: 2017.
6. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). – Toshkent.: 2008.
7. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent.: 2006.
8. Xaydarov X. O'zbek milliy musiqa ta'limi va uning rivojlanish mezonlari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent.: 2025.

